SAMARQAND VILOYATI PASTDARG‘OM TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 11-fevral | 50-7-101-Q/25 | Pastdarg‘om tumani hokimligi

Pastdarg‘om tumanida milliylikni keng targ‘ib qilishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

Pastdarg‘om tumanining ijtimoiy-madaniy rivojlanishini ta’minlash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, o‘zbek xalqining milliy boy madaniy merosini targ‘ib qilish hamda turizmni rivojlantirish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 6-fevraldagi “Milliylikni keng targ‘ib qilishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 33-7-0-Q/25-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi Oila va xotin-qizlar bo‘limi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi hamda tuman Madaniyat bo‘limining tumanda milliylikni targ‘ib qilish, milliy madaniyatni asrab-avaylash, o‘zbek xalqining boy merosini yosh avlodga yetkazish, shuningdek, tuman hayotida milliy an’analarning o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish haqidagi takliflari ma’qullansin.

3. Quyidagilar:

Pastdarg‘om tumanida milliylikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tuman ishchi guruhi (keyingi o‘rinlarda – Tuman ishchi guruhi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

tumanda milliylikni keng targ‘ib qilishga qaratilgan “Milliylik tuyg‘usi Pastdarg‘omda” loyihasi asosida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan chora-tadbirlar rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman ishchi guruhining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

milliy liboslar va milliylikni ommalashtirishga oid targ‘ibot materiallarini ishlab chiqish;

korxona, muassasa va tashkilotlar hamda mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan hamkorlikni tashkil etish;

ommaviy tadbirlar davrida milliy liboslar va milliylikning mavqeyini mustahkamlanishini ta’minlash;

milliy liboslar ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlarini o‘rnatilgan tartibda qo‘llab-quvvatlash;

mavzuga oid o‘quv-seminarlari, tanlovlar va boshqa tadbirlarni tashkil etish; mazkur qarorning bajarilishi yuzasidan doimiy nazoratni amalga oshirish.

5. Tumandagi davlat tashkilotlari va muassasalarda milliylikni targ‘ib qilish yo‘nalishida haftaning har juma kunini “Milliy liboslar kuni” deb belgilash hamda davlat organlari va muassasalari xodimlari milliy liboslarda yurishi tavsiya etilsin (tasdiqlangan xizmat kiyimlari bundan mustasno).

6. Tumanda hokimning o‘rinbosarlari (N.Qorayeva, D.Mamatkulov), bo‘lim va tashkilotlar rahbarlari, mahalla yettiligi:

milliy qadriyatlar aks etadigan bayramlar arafasida “Milliy liboslar” haftaligini tashkil etib borsin;

milliylikni targ‘ib qilish maqsadida “Milliy libos barchaga yarashadi” shiori ostidagi “Milliy trend chellendji” bo‘yicha targ‘ibot ishlari olib borsin;

ta’lim muassasalarida milliy liboslar tarixi, milliy hunarmandchilik, o‘zbek xalqining madaniyati va san’ati bo‘yicha ma’ruzalar, seminar-treninglar, ko‘rgazmalar hamda boshqa tadbirlar o‘tkazib borilishini ta’minlasin.

milliy qadriyatlar va milliy liboslar mavzusida turli tanlovlar, viktorinalar, o‘yinlar hamda boshqa tadbirlar tashkil etilishi hamda ushbu ko‘rik-tanlov va “challendj”larda faol ishtirok etganlar munosib rag‘batlantirilishini tashkil etsin.

7. Tuman hokimining o‘rinbosari (D.Mamatkulov), tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (M.Abdiyeva), 1 va 2-son Bolalar va o‘smirlar sport maktablari (S.Mamasoliyev, F.Xayriddinov) maktablarda milliy urf-odatlar va an’analarni saqlash hamda targ‘ib qilish uchun milliy sport o‘yinlari, raqs va qo‘shiq to‘garaklarini tashkil etilishini ta’minlasin.

8. Tuman “Pastdarg‘om haqiqati” gazetasi (B.Shukurov)ga o‘zbek xalqining milliy qadriyatlarini targ‘ib qilish maqsadida gazeta va jurnallarda, maqolalar va boshqa materiallar tayyorlab yoritib borish tavsiya etilsin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari N.Qorayeva va D.Mamatkulovlar zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh.Raxmanov**

Pastdarg‘om tuman hokimining
2025-yil 11-fevraldagi
50-7-101-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Pastdarg‘om tumanida milliylikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tuman ishchi guruhi tarkibi

T.r	Ish guruhi a’zolarining F.I.Sh	Lavozimi
1	N.Qorayeva	Tumant hokimining o‘rinbosari – ishchi guruh rahbari
2	D.Mamatkulov	Tuman hokimining o‘rinbosari – ishchi guruh rahbari o‘rinbosari
3	I.Norbekov	Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari- tuman hokimining matbuot kotibi, tuman hokimining axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslaxatchisi
4	Z.Mamadoliyev	Tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i
5	M.Toshmatov	Milliy gvardiyaning Qo‘riqlash bo‘limi boshlig‘i
6	V.Jo‘raqulov	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘limnasi rahbari
7	N.Saparova	Tuman Madaniyat boshqarmasi boshlig‘i
8	M.Abdiyeva	Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i
9	B.Qulmamatov	Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi boshlig‘i
10	I.Xusenov	Tuman Sog‘liqni saqlash bo‘limi boshlig‘i
11	Sh.Buranov	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i

Pastdarg‘om tuman hokimining
2025-yil 11-fevraldagi
50-7-101-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Pastdarg‘om tumanida milliylikni keng targ‘ib qilishga qaratilgan
“Milliylik tuyg‘usi Pastdarg‘omda” loyihasi asosida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan
CHORA-TADBIRLAR REJASI

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirilish mexanizmi	Muddati	Mas’ul
1	**“Qadimiy va hamisha navqiron Pastdarg‘om yoshlarni sevadi”** loyihasi doirasida **“Milliylik tuyg‘usi Pastdarg‘omda”** ko‘ngilochar konsertlarini tashkil etish.	1. Mahallalar miqyosida reja-jadval ishlab chiqish. 2. Namunaviy ssenariylar, qo‘shiqlar, raqslar ro‘yxatini shakllantirish. 3. Loyihani tashkil etish va OAVda yoritish.	2025-yil 20-fevral mart-aprel	Tuman hokimining o‘rinbosari (D.Mamatkulov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (Sh.Buranov), Tuman Madaniyat bo‘limi boshlig‘i (N.Saparova), Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi, Milliy gvardiyaning Qo‘riqlash bo‘limi boshlig‘i (M.Toshmatov), Tuman Sog‘liqni saqlash bo‘limi boshlig‘i (I.Xusenov)
2	Tumanda mavjud korxona va tashkilotlar, ta’lim muassasalari xodimlari uchun haftaning har juma kuni **“Milliy liboslar kuni”** loyihasini tashkil etish choralarini ko‘rish.	1. Korxona va tashkilotlarga loyihani tashkil etish bo‘yicha tavsiyaviy xat yuborish. 2. Loyiha doirasida *“milliy_libos_yarashadi”* chellendjini tashkil etish.	Yil davomida	Tuman hokimining o‘rinbosarlari (N.Qorayeva), Tuman Madaniyat bo‘limi boshlig‘i (N.Saparova), Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman

				bo‘lnmasi (T.Xushmuradov)
3	Davlat organlarining rasmiy veb saytlarini milliy ornament va naqshlar bilan bezash.	1. Davlat organlariga mos milliy ornament hamda naqshlar bazasini yaratish. 2. Loyihani amalga oshirish.	2025-yil 10-mart 2025-yil 25-mart	Tegishli davlat organlari rahbarlari
4	Tuman gazetasi sahifalarini milliy ornament va naqshlar bilan bezash tavsiya etilsin.	1. Davlat organlariga mos milliy ornament hamda naqshlar bazasini yaratish. 2. Loyihani amalga oshirish.	2025-yil 20-fevral 2025-yil 25-fevral	“Pastdarg‘om haqiqati” gazetasi tahririyati (B.Shukurov)
5	Yoshlar o‘rtasida milliylikni targ‘ib etish, ona-Vatanga, tarixga muhabbat uyg‘otish, o‘zbek milliy liboslarini zamonaviy ko‘rinishini yaratish, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida **“BEQASAM-2025”** milliy liboslar tanlovini o‘tkazish. Tanlov yakuni bo‘yicha milliy liboslar ko‘rgazmasini tashkil etish.	1. Tanlov komissiyasi hamda ijodiy guruhni shakllantirish. 2. Nizom ishlab chiqish. 3. Ishtirokchilarga tanlov yo‘nalishlari bo‘yicha mahorat darslari (master klass) o‘tkazish. 4. Tanlov yakuni bo‘yicha milliy liboslar ko‘rgazmasini tashkil etish.	2025-yil 15-fevral 2025-yil 20-fevral 2025-yil 10-25-mart	Tuman hokimining o‘rinbosarlari (D.Mamatkulov, N.Qorayeva), Tuman savdo-sanoat palatasi raisi (M.Uzoqov), Tuman Madaniyat bo‘limi boshlig‘i (N.Saparova), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i (Sh.Buranov), Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi.
6	**“Milliylik_Pastdarg‘omda_trendda”** shiori ostida qisqa metrajli ijtimoiy roliklar, blog hamda flashmoblar tanlovini e’lon qilish.	1. Ijodiy guruhni tashkil etish. 2. Tanlov nizomini ishlab chiqish. 3. Tanlov bo‘yicha OAVda e’lon berish. 4. Tanlovni tashkil etish, g‘oliblarni mukofotlash.	2025-yil 15-fevral mart	Tuman hokimining o‘rinbosari (D.Mamatkulov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i (Sh.Buranov), Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi.
7	Maktablarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish orqali o‘quvchilar o‘rtasida hurmat va do‘stona munosabatlarni mustahkamlash.	1. “Ma’naviyat kuni” doirasida “Maktabning ichki tartib va odob-axloq qoidalari”ning mazmun-mohiyatini o‘quvchilarga	O‘quv yili davomida har oyda	Tuman hokimining o‘rinbosari (D.Mamatkulov), Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i

		tushuntirish. 2. **“Eng faol sinf”** va **“Eng faol o‘quvchi”** nominatsiyalarini tizimli amalga oshirish. 3. O‘quvchilar o‘rtasida liderlikni shakllantirish yuzasidan **“ T e n g d o s h - t e n g d o s h g a ”,** **“Maktab o‘quvchilar boshqaruvida”** loyihalarini amalga oshirish. 4 . “ O i l a - m a h a l l a - t a ’ l i m muassasalari” hamkorligi asosida Jamoat kengashi faoliyatini kuchaytirish.	reja asosida yil davomida	(M.Abdiyeva), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i (Sh.Buranov), Mahalla uyushmasi tuman bo‘limi (B.Qulmamatov)
8	**“Milliy liboslar kuni”** doirasida mavzuga oid ko‘rik-tanlovlar tashkil etish.	1. Milliy qadriyatlarni o‘zida aks ettirgan holda **“Milliy kiyimlar ko‘rgazmasi”**ni tashkil etish. 2. Milliy va mumtoz san’atimizni targ‘ib qilish bo‘yicha **“Milliy cholg‘u ansambli”** va **“Milliy maqom ijrochisi”** kabi to‘garaklar tashkil etish. 3. **“Milliy musiqa bilan boshlangan kunim”** loyihasi doirasida ta’lim muassasalarida o‘quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida milliy musiqa qo‘yish (*dars jarayonlariga xalaqit bermagan holatda /dars boshlanishidan oldin va tanaffus vaqtlarida/*).	2025-yil har chorakda fevral oyidan boshlab har oyda	Tuman hokimining o‘rinbosari (D.Mamatkulov), Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i (M.Abdiyeva), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i (Sh.Buranov), Mahalla uyushmasi tuman bo‘limi (B.Qulmamatov) Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi.

		3. Milliylikni targ‘ib qilishda faollik ko‘rsatgan pedagog xodimlar, o‘quvchilar va sinflarni munosib rag‘batlantirish.		